

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Ч.Х.Чамолов	
Ифодаи мафхуми ишқ дар шеъри фарзона	435
Е.В.Шевченко	
Особенности историзма в романах пиримкула кадырова	439
Я.И.Нишанов	
Общечеловеческое значение сюжета, касающийся всего человечества	441
E.R.Adjeminova	
Phraseological image and motivational model	444
Н.Д.Ирина	
Влияние философии ницше на русскую литературу начала XX века	447
Н.Д.Ирина	
Литературный стиль и философские идеи в произведениях Франца Кафки: Абсурд, отчуждение и экзистенциальный кризис	453
Я.И.Нишанов	
Место и роль воспевания самой прекрасной истории в творчестве Дурбека	457

TILSHUNOSLIK

I.M.Qo'chqarov	
The grammatical features of speech acts in english	460
A.Z.Nurbek	
O'zbek tilshunosligida nutqiy aktlarga doir tadqiqotlar: usul va yondashuvlar	464
S.A.Yusupova	
Pragmatic use of respect in various communicative contexts	471
S.A.Yusupova	
linguistic expressions of respect in english and japanese	474
Sh.Y.Usmoнова	
Comparative study of landscape terms in english and uzbek	477
M.K.Uktamova	
The main components expressing the meaning of the seme "Character" in english phraseological units	480
D.X.Madazizova	
Badiiy diskursda dialektlar individual nutq yaratuvchi vosita sifatida	483
Sh.B.Karimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi son komponentli frazeologizmlarda kvantitativlikning ifodalanishi	488
Sh.B.Karimova	
O'zbek tili va ingliz tillarida kvantitativlik birliklarining sathlararo tahlili	495
Sh.R.Karimjonova	
Semantic analysis of visual cognitive verbs in uzbek and english	500
Sh.B.Dushatova	
Euphemisms representing hidden and mysterious concepts	507
Sh.T.Axmadjonova	
Definition and components of comprehension skills	511
Sh.M.Aripova	
Linguocultural analysis of superstitions	515
Sh.M.Aripova	
O'zbek va nemis tillarida irim-sirimlari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksemalar tahlili	519
Y.U.Abdurazzakov	
Frazeologik birliklarda jinsiy va yosh identifikatsiyasi: til va madaniyatning o'zaro aloqasi	522
N.X.Alieva	
Interlingual correspondence as a factor in enriching phraseology and identifying isomorphism and allomorphism of languages	525
R.U.Axrорова, M.T.Mamadaliyeva	
O'zbek amaliyotida turistik atamalarni standartlashtirishda ingliz tilining o'rni	530
M.S.G'aniyeva	
O'zbekiston ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonida gender munosabatlari hamda tadbirkor ayol fenomenining falsafiy talqini	533

**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SON KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARDA
KVANTITATIVLIKNING IFODALANISHI****ВЫРАЖЕНИЕ КОЛИЧЕСТВЕННОСТИ В ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ С ЧИСЛОВЫМ
КОМПОНЕНТОМ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ****EXPRESSION OF QUANTITATIVENESS IN PHRASEOLOGICAL UNITS WITH
NUMERICAL COMPONENTS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES**

Karimova Shaxloza Boyquzi qizi 
Farg'ona davlat universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida son komponentli frazeologik birliklar orqali kvantitativlikning ifodalanishi keng o'rganilgan. Tadqiqot davomida frazeologizmlar tahlil qilinib, ular ifodalovchi vositalarning asosiy ikki guruhi ajratib ko'rsatilgan: sonlar va leksik birliklar orqali ifodalanuvchi frazeologizmlar. O'zbek va ingliz tillarida sonlar ishtirokida yaratilgan frazeologizmlar o'xshashlik va farqlarga ega bo'lib, ularning qo'llanilishi milliy madaniyat va til xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. O'zbek tilidagi "besh qo'l barobar emas" yoki ingliz tilidagi "two heads are better than one" kabi iboralar xalq tajribasi va madaniyatining aksini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarda kvantitativlikning ko'plab ma'nolarni ifodalashini, jumladan, jamlilik, ajratish, vaziyatni yumshatish, bo'rttirish va sinchkovlik kabi semantik ko'rsatkichlarga ega ekanligini ochib beradi. Ushbu maqola kvantitativlikni lingvistik tadqiqotlarda yanada chuqurroq o'rganish uchun nazariy asos yaratadi hamda o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning lingvokulturologik ahamiyatini ochib beradi.

Аннотация

В данной статье исследуется выражение количественности через фразеологические единицы с числовыми компонентами в узбекском и английском языках. В рамках исследования проведен анализ фразеологизмов, которые разделены на две основные группы: выражаемые через числительные и лексические средства. Фразеологические единицы, содержащие числа, в узбекском и английском языках демонстрируют как сходства, так и различия, связанные с культурными и языковыми особенностями. Например, узбекская идиома "besh qo'l barobar emas" и английская "two heads are better than one" отражают народную мудрость и культурные ценности. Результаты исследования показывают, что фразеологизмы с числовыми компонентами выражают множество значений, включая собирательность, выделение, смягчение ситуации, преувеличение и тщательность. Статья предлагает теоретическую основу для дальнейшего изучения количественности в лингвистике, подчеркивая важность фразеологических единиц в лингвокультурологическом аспекте.

Abstract

This article examines the expression of quantitateness through phraseological units with numerical components in Uzbek and English. The study analyzes phraseological units, categorizing them into two main groups: those expressed through numbers and lexical elements. Numerical phraseological units in Uzbek and English reflect both similarities and differences, deeply rooted in cultural and linguistic characteristics. For instance, the Uzbek idiom "besh qo'l barobar emas" and the English "two heads are better than one" showcase cultural wisdom and values. The findings reveal that phraseological units with numerical components convey a wide range of meanings, including collectivity, specification, mitigation, exaggeration, and meticulousness. This article provides a theoretical foundation for further exploration of quantitateness in linguistics and highlights the significance of phraseological units in the linguistic and cultural context.

Kalit so'zlar: kvantitativlik, son, son komponentli, frazeologizm, frazeologik birliklar, iboralar.

Ключевые слова: количественности, число, числовые, фразеологическая единица, фразеологические выражения, идиомы.

Key words: quantitateness, number, number-based, phraseological unit, phraseological expressions, idioms.

KIRISH

Tilning go'zalligi va boy imkoniyatlarini namoyon etuvchi til birligi bu frazeologik birliklardir. Har bir tilda tilning o'ziga xos frazeologik birliklari, iboralar, so'z va iborali birikmalari mavjud. Tilning madaniy xususiyatlarini ochib berishda ularning o'rni beqiyos hisoblanadi.

Frazeologizm barqaror birikmalar sanaladi. Ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi [6,115].

Barqaror birikmalar frazeologizmlar, aforizmlar, maqollar va matallarni tashkil etadi.

Maqol va matallar, aforizmlar esa paremlar deb ataladi.

Frazeologizmlarni frazeologiyada, maqol va matallar, aforizmlarni paremiologiyada o'rganiladi.

Demak ularning barchasi barqaror birikmani tashkil etuvchilari sanalar ekan, ular bir-birlari bilan chambarchas bog'liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Frazeologik birliklar turli tillarda ko'p yillardan buyon tadqiqot obyekti sanalib, u haqida yetarlicha izlanishlar mavjud.

Kvantitativlikning frazeologizmlarda ifodalanishi yangi istiqbolli mavzulardan sanaladi. Sababi, bu sohadagi tadqiqotlar sanoqlikdir. O'zbek tadqiqotchilaridan B.N.Otaqulov [4], S.Ashurova [1] va F.Shukurovalarning izlanishlari frazeologik birliklarda kvantitativlikning ma'lum ko'rinishlarining ifodalanishi bilan bog'liq.

Ingliz tilida frazeologik birliklarda kvantitativlikning ayrim ko'rinishlari bilan bog'liq bo'lgan izlanishlardan, S.Sagidova [5], A.S.Didiuxina [2], L.Ionikalarning [3] tadqiqotlarini sanab o'tish mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqotimizda frazeologizmlarda kvantitativlikning namoyon bo'lishi haqida fikr yuritar ekanmiz, tahlil natijasi xulosalangan fikr asosida ularni o'rganmoqchimiz. O'zbek va ingliz tillarida miqdor konseptli frazeologizmlarni yig'ib, tahlil qilganimizda ularning ifoda usullariga ko'ra, asosiy ikki guruhga bo'linishini kuzatdik. Bizningcha, kvantitativlik frazeologizmlarda sonlar orqali yoki leksik vositalar orqali ifodalanishi mumkin. Dastlab, o'zbek va ingliz tillarida sonlar ishtirok etgan frazeologizmlarda kvantitativlikning ifodalanishini ko'rib chiqaylik.

O'zbek va ingliz tillaridagi kvantitativlikni ifodalovchi son komponentli frazeologizmlar quyidagilardan iborat:

Bir son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

O'zbek tilida: *bir bahya qold – oz qoldi; bir boshdan – tartib bilan; bir boshga bir o'lim – inson faqat bir marotaba o'ladi; bir boshini ikki bo'lmoq – ko'paymoq, uylanmoq; bir burda bo'lib qolmoq – ozib kichkina bo'lmoq; bir dunyo – juda ko'p; bir etka bola – ko'p bolali; bir hisobda – bir miqdorda; bir ishi ikki bo'ldi – bir ishi ikkitaga oshdi, ko'paydi (salbiy ma'noda); bir kesak bilan ikki qarg'ani urmoq – bir ish bilan ikkitasini hal qilmoq; bir ko'ylak et – ortiqcha vaznli; bir ko'ylakni burun (ortiq, oldin) yirtmoq – malakasi oshiq; bir oyog'(i) da bo'lsa, bir oyog'(i) da – yoshi katta odamlarga nisbatan ishlatiladi; bir og'iz – oz so'zlash; bir parda baland olib yubormoq – sal oshirib yubormoq; bir qarich – yosh, go'dak, kichkina; bir qatorga qo'ymoq – teng deb bilmoq; bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday – ortiqcha go'zal; bir siqimgina bo'lib qolmoq – kichiklashmoq; bir tovuqqa ham suv kerak, ham don kerak – ko'p narsa kerak ma'nosida; bir tutam, bir shingil, bir chimdim – oz, ko'p bo'lmagan ma'nosida, bir ikki qovin pishig'i – ancha vaqt bor ma'nosida;*

ingliz tilida: *all in one, one in a million – millionning biri, noyob, one too many, one of a kind, the only one, one and the same, one by one, one of many, one or two, not one to, not one iota.*

Ikki son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o'zbek tilida: *ikki bukulib – ortiqcha darajada; ikki dunyo bir qadam – katta masofa ham ozday; ikki ellik – qisqagina; ikki gapning birida – qayta-qayta; ikki og'iz – ozgina, andak; ikki shingil – ozgina, ozroq;*

ingliz tilida: *two of a kind, two's company, cut in two, two-fold, in two minds, two peas in a pod, put two and two is together, two heads are better than one, two – way street, between two stools;*

uch son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o'zbek tilida: *uch-to'rt og'iz* – *ozgina, kamroq*;

ingliz tilida: *three's a crowd, three strikes and you're out, threefold, third time's a charm, three cheers, three-ring circus, three-legend race, three square a day, three sheets to the wind, at the third stroke.*

to'rt son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o'zbek tilida: *to'rt gapning birida* – *ikki gapning birida* – *tez – tez*; *to'rt ishkal(i) but* – *boy, yetarlicha daromadga ega*; *to'rt og'iz* – *oz-moz, biroz*; *to'rt ellik* – *ikki ellik* – *ozgina*;

ingliz tilida: *four corners of the earth, four-letter word, four eyes, four-wheel drive, four-score and seven years ago.*

beshton son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o'zbek tilida: *beshton qo'l barobar emas* – *teng emas*; *beshton barmog'(i)day* – *atroflicha, batafsil*; *beshton barmog'ini og'ziga tiqmoq* – *ortiqcha xirs*; *beshton battar* – *yomon holatlarning oshishi*; *beshton kunlik dunyo* – *qisqa dunyo, oz fursat yashamoq*; *beshton-olti og'iz gap* – *bir nechta gap*; *beshton-olti qovun pishig'i* – *anchagina vaqt, beshton-olti yil*; *beshton-olti ko'ylakni ortiq yirtmoq* – *tajribasi ko'p*;

ingliz tilida: *high five, five-finger discount, take five, five o'clock shadow, the Big Five, fifth wheel, into the five and dime.*

olti son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o'zbek tilida: *olti raqami ishtirokida* o'zbek tilida iboralar uchratmadik.

ingliz tilida: *six feet under, at sixes and sevens, sixth sense, hit for six, six-pack.*

yetti son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o'zbek tilida: *yetti pushti* – *bir nechta bo'g'in ajdodlari*; *yetti qovun pishig'i* – *bir nechta yil muddat*; *yetti xuftongacha* – *ancha vaqtgacha*; *yetti yoshdan yetmish yoshgacha* – *katta-kichik, barcha*; *yetti yod begona* – *umuman begona*;

ingliz tilida: *seven-year itch, seventh heaven, lucky seven, seven wonders of the world, dressed to the sevens.*

o'n son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o'zbek tilida: *o'n gulidan bir guli ochilmagan* – *yosh, kichik yoshli*; *o'n kulib, bir gapirmoq xushchaqchaq*; *o'n og'iz* – *yetarlicha, oz emas*;

ingliz tilida: *ten out of ten, top ten, ten-fold, hang-ten.*

XULOSA

Son komponentli frazeologik birliklar miqdor ma'nosiga ega bo'lish bilan birgalikda turli ma'nolarni ham ifodalab keladi. Bunday iboralar xalq orasida keng qo'llanilib, ularning yillar davomida yig'ilgan tajribalarini biron bir vaziyat yuzasidan fikrlarini son komponentli frazeologik birlik yordamida ifodalashini kuzatish mumkin. Son ishtirok etgan frazeologik birliklar ko'pincha jamlik, xususiylik, ajratib ko'rsatish, taxmin, vaziyatni yumshatish, bo'rttirish va sinchkovlik ma'nolari ifodalash uchun qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashurova S, Shukurova F. Some Consideration on Etymology of phraseological units in the Uzbek and English Languages. Semantic Scholar. 2020.
2. Didiuxina A.S., Xiaolong Shi. Ethnocultural Experience of Representing the Conceptual Meaning of "Small Quantity of Something" at the Phraseological level in Russian, English and Chinese Languages. Kazan Linguistic Journal. 2024.
3. Ionica L. Dynamics of Expressions, A Romanian-English contrastive analysis.
4. Otaqulov B.N. Linguistic features of number component measurative phraseological units. Theoretical and Applied Sciences. Philadelphia. USA. 2020.
5. Sagidova S. Phraseological units with Cardinal Numeral Component in the English Language. Semantic Scholar. 2021.
6. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2016. – B.115.